

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN SHAXSIY KOMPYUTER ARXITEKTURASI VA UNGA XIZMAT KO'RSATISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Shaxsiy kompyuter arxitekturasiga unga xizmat ko'rsatish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Shaxsiy kompyuter arxitekturasiga va unga xizmat ko'rsatish

- 1.Shaxsiy kompyuterning tuzilishi. Shaxsiy kompyuterning protsessori;
- 2.Shaxsiy kompyuterning ichki qurilmalari.Shaxsiy kompyuter portlari;
- 3.Shaxsiy kompyuterning tashqi qurilmalari. Kompyuterlarni tarmoqqa ulash;
- 4.Kompyuter va ofis jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish;
- 5.Shaxsiy kompyuterga texnik xizmat ko'rsatish;
- 6.Soketlar. Mikroprotsessorlar.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Shaxsiy kompyuterning tuzilishi. Shaxsiy kompyuterning protsessori	Shaxsiy kompyuterning tuzilishini, shaxsiy kompyuterning protsessori, kompyuter va uning tuzilishi, texnik ta'minot (protsessor, xotira, qattiq disk, kiritish-chiqarish qurilmalari), kompyuterning mantiqiy qurilmasi, periferiya qurilmalari, kompyuterning apparat ta'minoti, avtomatik boshqaruv tizimlarini va ularga doir topshiriqlarni bajara olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	25 %	10 ta
2	Shaxsiy kompyuterning ichki qurilmalari.Shaxsiy kompyuter portlari	Kontrollerlar, tizim platasi, microprotsessorlar, disk yurituvchilar, tezkor xotira qurilmalari,CPU bloki, qattiq disklar, SSD, videokartalar, slotlar, razyomlar bilan ishlash USB, USB1,2,3 portlar, LBT, LBP portlar, USB 3.0 standartini, standart portlarni sozlash, portlar orqali drayverlarni o'rnatish va ishlatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta
3	Shaxsiy kompyuterning tashqi qurilmalari. Kompyuterlarni tarmoqqa ulash	Shaxsiy kompyuterning tashqi qurilmalari. Kompyuterlarni tarmoqqa ulashni, kompyuter tarmoqlari, tarmoq komponentlari va arxitekturasini, tarmoqlarning ishlash prinsipini, IP-manzillash, tarmoq maskasi, ma'lumotlarni uzatish protokollari, Ethernet, TCP/IP va IEEE, tarmoq qurilmalari, elektron pochta, internetda ishlash asoslarini o'rganish tarmoq manzilini aniqlash, internetda ishlash va ularga doir topshiriqlarni bajara olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	30 %	12 ta
4	Kompyuter va ofis jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish	Office dasturlarini o'rnatish va sozlash, printerlarga texnik xizmat ko'rsatish, shredderlar, laminatorlar, muqovalovchilar bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	7.5 %	3 ta
5	Shaxsiy kompyuterga texnik xizmat ko'rsatish	Shaxsiy kompyuterga texnik xizmat ko'rsatishni, kompyuter texnikasi va ofis uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish, ofis uskunalariga sarf materiallar, kartrijlarni to'ldirish va tiklash, orgtexnikalar uchun uskunalar, aksessuarlar va tozalash mahsulotlari bilan ishlay oladi.	20 %	8 ta
6	Soketlar. Mikroprotsessorlar	Soketlar. Mikroprotsessorlar Dasturiy ta'minot (operatsion tizimlar – Windows, Linux; Mac OS, Android, BIOS tizimi, Unix OT, amaliy dasturlar	7.5 %	3 ta

		– MS Office, grafik muharrirlar), fayl tizimlari, fayl formatlari, fayllarni boshqarish, drayver va utilitalar, tizimlarning o‘zaro ishlash jarayonini bilish ularga doir topshiriqlarni bajara olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.		
--	--	---	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	12.5 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	75 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	12.5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Shaxsiy kompyuter va ofis qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish. Yaxshiboyev R.E, Siddiqov B.N Toshkent : "Tafakkur avlodi" 2022 yil
2. Kompyuter tarmoqlarini administratorlash. X.Djumanov. K.T.Abdurashidova. S.Botirov Zamin Nashr -2021
3. G.Rahimova; G. Jo'raqulova. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Toshkent -2024 yil.
4. Gaipnazarov T.S, Irgasheva D.Y Ma'lumotlar ombori. Toshkent-2014.
5. Kompyuter tizimlari va tarmoqlari. A.A.Kaxxarov, Yu.Sh Avazov Toshkent 2022.
6. Sh.B.Sayfullayev. Axborot xavfsizligi. Toshkent 2021.
7. Axborot texnologiyalari asoslari. Mirzayev A.E. Xalilov S.p, Naim N.A. Toshkent -2021
8. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf. V.Wright, D.Taylor. "Cambridge University Press". 2023
9. Informatika va axborot texnologiyalari. 10-11-sinf. P.Long, S.Lawrey, V.Ellis. "Cambridge University Press". 2023
10. Informatika va axborot texnologiyalari. 8-sinf. M.Fayziyeva. "Nashriyot uyi tasvir". 2020
11. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf. M.Fayziyeva. "Nashriyot uyi tasvir". 2020
12. Informatika va axborot texnologiyalari. 10-sinf. F.Fayziyeva, D.Sayfurov va b. "Respublika ta'lim markazi". 2021
13. Informatika va axborot texnologiyalari. 11-sinf. N.Xaytullayeva, F.Fayziyeva va b. "Respublika ta'lim markazi". 2021.
14. Informatika va axborot texnologiyalari. O'rta ta'lim muassasalarining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik 10-sinf. Taylaqov N. Axmedov A. Paradyeva M. Abdug'aniyev A. 1-nashri. Toshkent 2017 yil.
15. Informatika va axborot texnologiyalari. O'rta ta'lim muassasalarining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik 11-sinf. Taylaqov N. Axmedov A. Paradyeva M. Abdug'aniyev A. 1-nashri. Toshkent 2017 yil.